



№4/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

TALABALAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISH

Ahmadjonova Shahnozaxon Yarqinovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotekhnologiyalar instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada bugungi kunda talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari, ularning oldini olish mexanizmlari va bu jarayonda ta'lim muassasalarining roli tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar:

huquqbuzarlik, profilaktika, talaba, huquqiy madaniyat, jinoyatchilik, ma'naviyat, tarbiya.

Аннотация.

В данной статье анализируются причины преступлений среди учащихся и молодежи в наши дни, механизмы их предотвращения и роль образовательных учреждений в этом процессе. Также приводятся практические рекомендации по повышению правовой осведомленности молодежи.

Ключевые слова:

преступность, профилактика, студент, правовая культура, преступление, духовность, образование.

Abstract.

This article analyzes the causes of delinquency among students, prevention mechanisms, and the role of educational institutions in this process. It also provides practical recommendations for enhancing the legal consciousness of young people.

Keywords:

delinquency, prevention, student, legal culture, crime, spirituality, education.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan maskan, balki yoshlarning ijtimoiy dunyoqarashi va huquqiy madaniyatini shakllantiruvchi muhim maskan hisoblanadi. Talabalik davri inson hayotidagi eng jo'shqin, yangiliklarga intiluvchan, shu bilan birga, turli yot ta'sirlarga eng moyil davr hisoblanadi. Globallashuv sharoitida talaba-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi shunchaki huquqiy zaruriyat emas, balki millat kelajagi va davlat barqarorligini yanada ta'minlashning asosiy shartlaridan biriga aylanib kelmoqda.

Huquqbuzarliklarning kelib chiqishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat;

Talabalar o'rtasida qonunbuzarlik holatlarining kelib chiqishiga bir qancha omillar sabab bo'lib kelmoqda. Birinchidan, huquqiy savodxonlikning yetarli darajada emasligi. Ko'p hollarda yoshlar o'z harakatlarining qonuniy oqibatlarini oxirigacha anglab yetmaligi sabab bo'lib kelmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsning qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlarni tarqatish yoki firibgarlik tuzoqlariga bilmasdan aralashib qolish kiberjinoyatchilikka yo'l ochib bermoqda, ayrim jinoyatlar esa qo'l telefoni orqali yuzaga kelmoqda.

Ikkinchidan, talabalarining bo'sh vaqti kop'ligi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklarning aksariyati talabalarining darsdan bo'sh vaqtlarida, ularning faoliyati nazorat qilinmagan yoki mazmunli tashkil etilmagan paytlarida sodir bo'lib kelmoqda.

"Bekorchidan xudo bezor" iborasi bu vaziyatga yaqqol isbot bo'la oladi; band bo'lmagan yoshlar turli zararli odatlar, qimor o'yinlari yoki axloqsiz guruhlar ta'siriga tezroq tushib qolishmoqda.

Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik omillar. Moddiy yetishmovchilik, ota-ona nazoratidan chiqish (ayniqsa, ijarada turuvchi talabalarda bu holat ko'p uchrab turibadi) va tengdoshlar o'rtasidagi salbiy raqobat ham jinoyatga qo'l urishga turtki bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunda davlatimiz rivojlangan sari yangi imkoniyatlar ochilib kelmoqda bunga yaqqol misol profilaktikaning zamonaviy usullari.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda faqat jazo choralariga tayanish kutilgan natijani bermaydi. Balki bu borada profilaktikaning zamonaviy va ta'sirchan usullaridan foydalanishimiz ham mumkin. Hozirda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha yondashuvlar tubdan o'garib kelmoqda. Huquqbuzarlikni oldini olish uchun faqat jazo choralarini qo'llash kifoya qilmaydi. Bu borada "Profilaktika kuni" tadbirlarini muntazam o'tkazish huquqiy tartibot idoralari xodimlari bilan ochiq muloqatlar tashkil etish muhim. Asosiy e'tibor talabalarni sport, san'at va ilmiy to'garaklarga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilishi lozim. Profilaktika inspektorlari ularga ancha ishlar yuklatilgan. Ular bundan tashqari har bir fuqaro bilan ham alohida shug'illanishadi. Huquqbuzarlikni sodir etilishi yoki undan jabrlanishi mumkin bo'lgan fuqoralarni tezkorlik bilan profilaktika inspektorlari vaqtida ular bilan bog'lanib suhbat o'tkazib kelmoqda. Hozirgi kunda esa eng ko'p soha mutaxassislarini ham qiynayotgan masala asosan yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik va huquqbuzarlik hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'p jinoyatlar yoshlar tomonidan sodir etilishi sabab bo'lmoqda. Hozirda bu borada juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo ko'pchilik talaba yoshlar o'zi sodir qilgan ijtimoiy havfli qilmishini to'g'ri baholay olmayotgani, ushbu harakatlari jinoyat yoki huquqbuzarlik ekanligini anglab yetmagani oqibatida ta'lim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ulardagi mafkuraviy-g'oyaviy bo'shliqni o'rnini kerakli bilimlar bilan to'ldirishida ota-onalar va ustozlari tomonidan jiddiy va doimiy nazoratga olinishi kerak. Shuningdek, yosh avlod o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularga har bir jinoyat yoki huquqbuzarliklarning mazmun-mohiyati nimadan iborat ekanligini tushuntirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirish va o'z vaqtida jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada eng samarali yechim huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin jazolashdan ko'ra, uning oldini olish afzal hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga qiziqarli mashg'ulotlar bo'lishi zarur.

➤ Ma'rifat darslari orqali tarbiyalash: Talabalarga qonunlarni shunchaki quruq matn sifatida emas, balki ularning xavfsizligini ta'minlovchi kafolat sifatida o'rgatish kerak. Huquqiy savodxonlik soatlari qiziqarli debat va keyslar shaklida o'tkazilishi lozim.

➤ Bo'sh vaqtini samarali tashkil etish bo'yicha – dushman yoki do'st? Agar talaba darsdan keyin sport, san'at, kitobxonlik yoki IT-texnologiyalar bilan band bo'lsa, unda yomon yo'lga kirish uchun na vaqt, na xohishi bo'ladi. To'garaklar faoliyatini zamonaviy talablarga moslashtirish — davr talabi hisoblanadi.

➤ Kiber-xavfsizlik madaniyatini tushuntirish: Bugun kiber-bulling, feyk xabarlar tarqatish yoki diniy ekstremistik materiallarni "layk" bosish orqali tarqatish og'ir oqibatlariga olib kelmoqda. Talaba har bir tugmani bosishdan oldin uning huquqiy oqibatini o'ylashi shart. Chunki shu asoslar bo'lib ham jinoyat sodir etib kelinmoqda.

Hozirgi kunda esa tobora kiber jinoyatchilikning ortishi talabalarning axborat texnologiyalardan foydalanish madaniyati hali yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi. Ko'p hollarda talabalar oson pul topish maqsadida turli onlayn qimor va boshqa o'yinlariga aralashib, natijada og'ir jinoyatlarga qo'l urmoqdalar. Bularning barchasi talabalarning bo'sh vaqti ko'pligidandir. Har bir talabaning tarbiyasi bo'yicha oilaning roli va ma'sulyati katta hisoblanadi. Garchi talaba voyaga yetgan shaxs bo'lsada, oiladan uzilmasligi kerak. Chunki farzand tarbiyasida oilani o'rni juda katta hisoblanadi. Farzandining nima bilan bandligiga kimlar bilan do'stlashgani va darsdan tashqari vaqtini qanday o'tkazayotgani haqida ota-onalarining xabari bo'lishi profilaktikaning eng mustahkam poydevoridir.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, talaba — bu jamiyatning eng ongli qatlami bo'lishi kerak. Huquqbuzarlik profilaktikasi faqat huquq-targ'ibot organlarining vazifasi emas, balki universitet ma'muriyati, professor-o'qituvchilar va har bir talabaning vijdoniy ishiga aylanishi lozim. Qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyatda yoshlarning orzu-istaklari va iste'dodlari to'liq namoyon bo'ladi. Bu — keng jamoatchilik, oila va ta'lim maskanining hamkorlikdagi harakatini talab etadi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali biz nafaqat jinoyatchilikni kamaytiramiz, balki qonunlarga hurmat bilan qaraydigan sog'lom fuqarolik jamiyatini quramiz.

Har bir yosh yigit-qiz "Mening huquqiy madaniyatim — mening kelajagim" tamoyili asosida yashashi shart. Talabalar, yurtimizning ertangi kunidir. Har bir bosgan qadami, qabul qilgan qarori nafaqat o'zi uchun, balki yaqinlari va vatanimiz taqdiriga ta'sir qiladi. Huquqbuzarlikdan yiroq bo'lish — bu shunchaki qo'rqinch emas, balki o'zligini hurmat qilish, madaniyatli inson ekanligini isbotlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" (O'RQ-371-son, 14.05.2014 y.).
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" — Toshkent: "O'zbekiston", 2016.
3. Akramov A.A. "Yoshlar psixologiyasi va huquqbuzarliklar profilaktikasi" — O'quv qo'llanma, Toshkent, 2021.
4. Ismoilov I. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi: muammo va yechimlar" // "Huquq va burch" jurnali, 2022-yil, 5-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasining ilmiy to'plamlari (2023-y.).
6. IIV Akademiyasi axborotnomasi. "Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari". Ilmiy maqolalar to'plami, 2022

Эгамназарова З.К.

Совершенствование коммуникативной компетенции на занятиях по русскому языку в вузе (в нефилологических направлениях) посредством использования современных сатирических текстов 74 77

To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li

Talabalar xizmatlarini tashkil etishda registrator ofisining ergonomik boshqaruv modeli 78 81

Novshadbekova Dilnura Zafarbekj qizi

Tarbiya fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish orqali talabalarning kreativ va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish 82 87

Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna

Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv faoliyatini pedagogik improvizatsiya asosida rivojlantirishning determinantlari va strategiyalari 88 91

Muqumjonova (Sodiqova) Moxinur Farxodjon qizi

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar 92 94

Kodirov Muxammadxusanbek Abdizohid o'g'li

Oliy ta'lim muassasalarida basketbol mashg'ulotlarini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish 95 100

Shomurotov Asqar Abdullayevich

Talabalarning jismoniy tarbiya jarayonida aylanma mashg'ulotlardan foydalanishning samarali usullari 101 105

Ismonov Xurshidbek Baxtiyorovich, Toshpulatova Maftuna Sherali qizi

Geomertik shakllar asosida Natyurmort kompozitsiyasini qurish 106 109

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR

Fozilov Botirjon Zakirovich

Global ta'lim migratsiyasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil va strategik rivojlanish tendensiyalari 110 116

Abduraximova Shaxnoza Raxmonjonovna

O'quv faoliyatida stressni yengishning samarali psixologik texnikalari 117 122

Erkinboyeva Zilola Fayzillo qizi

Mahmudxo'ja behbudiyning jadidchilik g'oyalari va ma'rifiy islohotchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari 123 125

Eshonqulova Jumagul Abdumajidovna

Ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasi masalasi orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari 126 129

Mamajonov Ulug'bek Maxammattolibovich

Musiqqa san'ati va inson qalbining uyg'unligi 130 133

Ahmadjonova Shahnozaxon Yارقinovna

Talabalar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olish 134 136

Keldiyeva Shaxnozaxon Shuxratovna

Bo'lajak tarixchi talabalarni tayyorlashda reflektiv yondashuv: jadid maktablarining ilmiy-metodik merosidan foydalanish imkoniyatlari 137 140

